



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKSI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA OITSGA QARSHI KURASHISH MARKAZI  
BUYRUQ**

2023 yil "5" 09

№143-n

*Respublika OITSga qarshi kurashish markazi  
xodimlarining odob-ahloq qoidalari to'g'risida*

O'zbekiston Respublikasi Sog'lqni saqlash vazirligining 2022 yil 24 martdagи "Tibbiyot xodimlarining yangilangan odob-ahloq Kodeksini tasdiqlash haqida"gi 88-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Respublika OITSga qarshi kurashish markazi xodimlarining odob-ahloq qoidalari 1-ilovaga;

dob-ahloq qoidalariiga rioya etilishini nazorat qilish hay'ati tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika OITSga qarshi kurashish markazi tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga:

xodimlar tomonidan faoliyati davomida ilovada keltirilgan odob-ahloq qoidalari va talablariga rioya etilishi ta'minlansin.

3. Mazkur buyruq ijrosi bo'yicha nazorat direktor o'rinnbosarlari D.Mustafayeva va B.Umarov zimmalariga yuklatilsin.

*Direktor:*

**B. Igamberdiyev**

00000000000000000000000000000000

## Respublika OITSga qarshi kurashish markazi xodimlarining odob-ahloq QOIDALARI

### I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu “odob-ahloq qoidalari” (keyingi o’rinlarda “Qoidalari”) O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligining 2022 yil 24 martdagi “Tibbiyot xodimlarining yangilangan odob-axloq Kodeksini tasdiqlash haqida”gi 88-sonli buyrug’i asosida ishlab chiqilgan bo’lib, kasbiy odob-ahloqning umumiy tamoyillari va Respublika OITSga qarshi kurashish markazi xodimlarining xizmatdagi kasbiy odob-ahloqining va xulq-atvorining asosiy qoidalarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Qoidalarga riya qilish OITSga qarshi kurashish markazlarida faoliyat ko’rsatayotgan barcha xodimlar uchun majburliki hisoblanadi.

1.3. Xodimning Qoidalarga riya etishi uning kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

### II. Qoidalarning maqsad va vazifalari

2.1. Ushbu qoidalarning maqsadi xodimlar tomonidan huquqbazarlik sodir etilishining oldini olish va kelib chiqishiga sabab hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish, xodimlar tomonidan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat’iy riya qilishini ta’minlash hisoblanadi.

2.2. Qoidalar OITSga qarshi kurashish markazlaridagi barcha xodimlarining tibbiy deontologiyasi va kasb etikasini mukammal egallab, unga amal qilishini ko’zda tutadi.

### III. Xodimlarning xizmatdagi xulq-atvorining asosiy tamoyillari va qoidalari

3.1. Tibbiy xodimlar o’z kasbiy faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiradi:

qonuniylik;  
fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;  
xizmat burchiga fidoiylik;  
davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;  
adolatlilik, halollik va xolislik;  
manfaatlar to’qnashuviga yo’l qo’ymaslik;  
sog’liqni saqlash sohasida inson huquqlariga riya qilinishi;  
profilaktika chora-tadbirlarining ustuvorligi.

1. Tibbiyot xodimlari quyidagilarga majbur:

xizmat vazifalarini bajarishda qonun talablari va mazkur Qoidalarda o’rnataligan

normalarga qat'iy rioya etish;

o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;

o'z faoliyatini qonun hujjatlarda va ichki hujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;

o'z xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan hatti-harakatlarga barham berish;

idoraviy hujjatlarda belgilangan ichki tartib qoidalarga rioya qilish, o'z xizmat vazifalarini lavozim vakolatlari doirasida og'ishmay bajarish;

xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek o'z obro'siga yoki muassasaning nufuziga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik;

davlat organida xabarlar va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariiga rioya etish.

3.2. Tibbiyot xodimlariga o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday moddiy rag'bat va boshqa imtiyozlar olish taqiqlanadi;

3.3. Tibbiyot mutaxassislari korruptsiya holatlariga qarshi kurashishlari va ularning oldini olishga faol hissa qo'shishlari kerak;

3.4. Tibbiyot xodimlari o'z rahbarlarini yoki tegishli huquqni muhofaza qilish organlarini shaxslarning jinoyat sodir etishga undash maqsadida murojaatlari, shuningdek ularga ma'lum bo'lgan boshqa tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etilgan qonunbuzarlik holatlari to'g'risida xabardor qilishlari shart;

3.5. Tibbiyot muassasasi rahbari xodimining qonun buzilishi to'g'risidagi shikoyat yoki kasbiy faoliyat doirasida bildirilgan tanqid, shuningdek, fikr bildirishi munosabati bilan ishdan bo'shatilmasligi hamda boshqa turdag'i ta'qib qilinmasligini ta'minlashi shart;

3.6. Rahbar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan muassasada:

- xodimlarga yuqori professionalizm va adolatda o'rnak bo'lishi;
- jamoani samarali boshqarishi;
- jamoada ijobiy ma'naviy-psixologik muhitni shakllanishiga ko'maklashishi;
- xodimlardan ularning vakolati doirasidan tashqari topshiriqlarni bajarishni talab qilmasligi;
- qonunga xilof hatti-harakatlarni sodir etilishining oldini olishi;
- kadrlarni ishga qabul qilish, tanlash va joy-joyiga qo'yishda qarindoshchilik, tanish-bilishchilik kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi holatlarga yo'l qo'ymasligi;
- guruhbozlik, mahalliychilik ko'rinishlarining, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarga shart-sharoitlar yaratmasligi;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olishi va ularni tartibga solish yuzasidan tezkor choralar ko'rishi;
- korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rishi;
- o'ziga ishonib topshirilgan tashkilot mulki va moliyaviy mablag'larga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishi hamda ulardan maqsadli ravishda foydalanishi shart;

- o'zi faoliyat ko'rsatayotgan muassasada xodimlarning xulq-atvori qoidalarini buzishga olib kelgan hatti-harakatlarini oldini olish borasida choralarни ko'rishi kerak.

3.7. Tibbiyot xodimlari boshqa davlat tashkilotlari xodimlari bilan xizmat doirasida o'zaro manfaatli hamkorlikka erishish uchun namunali xulq-atvor va mehnatsevarlikni namoyish etishlari kerak.

3.8. Tibbiyot xodimlari xushmuomala, odobli, e'tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatl bo'lishi va ularni hurmat qilishi shart.

3.9. Tibbiyot xodimlari jamiyatda o'rnatilgan odob-ahloq me'yorlariga qat'iy rioya qilishlari (qo'pol bo'lmaslik) shart, o'z faoliyatida ularga bevosita murojaat qilgan har bir fuqaro oldida sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasliklari kerak;

3.10. Tibbiyot xodimlarining tashqi ko'rinishi umumiyl qabul qilingan ish uslubiga mos kelishi kerak;

3.11. Tibbiyot xodimining faoliyati yuqori etika va tibbiy deontologiya qoidalariga asoslanishi kerak. Ushbu talablar bemorning o'limidan keyin ham o'zgarmasligi kerak;

3.12. Tibbiyot xodimi bemorning jinsi, yoshi, irqi, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, moliyaviy ahvoli, siyosiy qarashlari, jamiyatdagi obro'sidan qat'iy nazar sifatli, samarali va xavfsiz tibbiy yordam ko'rsatishi shart;

3.13. Tibbiyot xodimi o'z faoliyatida diagnostika va davolash usullarining afzalliklari, kamchiliklari va oqibatlarini hisobga olishi kerak. Muassasada zarur jihozlar yoki resurslar bo'limgan taqdirda, tibbiyot xodimi bemorni zudlik bilan tegishli tibbiyot muassasasiga yuborish choralarini ko'rishi shart;

3.14. Tibbiyot xodim o'z vazifalaridan kelib chiqib, joylashgan joyidan qat'iy nazar, tibbiy yordamga muhtoj shaxslarga birinchi yordam ko'rsatishi shart;

3.15. Tibbiyot xodimi jismoniy va yuridik shaxslarning bosimi ostida ham O'zbekiston Respublikasi qonunlari va axloq qoidalariga zid hatti-harakatlardan o'zini tiyishi, kasbiy burch tamoyillariga sodiq qolishi shart;

3.16. Fuqaroning tibbiy yordam so'rab qilgan murojaatidagi barcha ma'lumotlar: uning sog'lig'i, kasalligi tashxisi, shuningdek uni tekshirish va davolash paytida olingen barcha ma'lumotlar tibbiyot mutaxassisini tomonidan sir saqlanishi kerak;

3.17. Bemor haqidagi ma'lumotlarni uning yoki uning qonuniy vakillari bo'lgan shaxslarning roziligesiz oshkor qilish taqiqlanadi;

3.18. Tibbiyot xodimining sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni faqat prokuratura, dastlabki tergov, surishtiruv organlari va tezkor tergov faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, shuningdek sud organlarining rasmiy so'roviga binoan fuqaroning yoki uning qonuniy vakilining roziligesiz berishga yo'l qo'yiladi;

3.19. Har bir tibbiyot xodimi tibbiyot sohasidagi bilim va malakalarini doimiy ravishda oshirib borishi, shu bilan birga uning malakasi va professionallik darajasini oshirishga yordam beradigan tadbirarda muntazam ishtiroy etishi kerak;

3.20. Tibbiyot xodimlari faoliyatini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tanishib borishi va ular asosida faoliyat olib borishi, barcha mavjud standartlar,

bayonnomalar va klinik yo'riqnomalardan xabardor bo'lishi hamda ulardan klinik holatlar va professionallik darajasiga qarab foydalanishi kerak;

3.21. Tibbiyot xodimi ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari (vebsaytlar, onlayn gazeta va jurnallar, forumlar va boshqalar) orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishi kerak;

3.22. Tibbiyot xodimlari tomonidan fuqarolarga noto'g'ri tashxis qo'yish, shuningdek firibgarlikning barcha turlari qat'iyan man etiladi;

3.23. Tibbiyot xodimining bemorlar shaxsiy hayotiga asossiz aralashishiga yo'l qo'yilmaydi;

3.24. Tibbiyot xodimi fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini ta'minlash uchun profilaktika va davolash usullari hamda dori vositalaridan yashirinchha foydalanish huquqiga ega emas;

3.25. Tibbiyot xodimi kasallik tarixini, tibbiy xulosalarni va boshqa tibbiy hujjatlarni to'ldirishda xolis va rostgo'y bo'lishi kerak. Fuqarolar ongida tibbiyot xodimlariga nisbatan salbiy fikr uyg'otadigan va tibbiyot xodimi sha'niga dog'tushiradigan hatti-harakatlardan o'zini tiyishi lozim.

#### **IV. Tibbiyot xodimi va bemor munosabatlari**

4.1. Tibbiyot xodimi davolash va tashxis qo'yish jarayonini tashkil qilishda, jumladan, dori-darmon bilan ta'minlashda o'zi va tibbiy muassasaning manfaatini ustun qo'yagan holda yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishi lozim.

4.2. Tibbiyot xodimi bemorning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, davolashda uning shaxsiyatidagi barcha xususiyatlarni hisobga olishi hamda bemorni o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishga undashi lozim.

4.3. Tibbiyot xodimi bemorning tibbiy bilimlarining Yetishmasligi, kasallikdan qo'rqliishi, ishonuvchanligini suiiste'mol qilmasligi va o'zining professional mahoratidan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanmasligi kerak.

4.4. Tibbiyot xodimi bilan bemor o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, ishonch va oshkoraliq tamoyillariga asoslanishi kerak.

4.5. Tibbiyot xodimi maqbul usulda bemorni uning salomatlik holati, kasallikning bundan buyon qanday kechishiga oid taxminlar, davolash usullari va bu usullar bilan bog'liq xavf-xatar, tibbiy aralashuvning ehtimol tutilgan turlari va ularning oqibatlari, amalga oshirilgan davolashning natijalari haqida xabardor qilishi lozim.

4.6. Tibbiyot xodimi bemorning olgan ma'lumotidan qoniqqanligiga ishonch hosil qilishi va zarurat tug'ilganida qo'shimcha tavsiyalar, ma'lumotlar va axborotlar berishdan qochmasligi kerak.

4.7. Tibbiyot xodimi davolashning innovasion, zamonaviy usullari va texnologiyalarini bilgan holda, klinik samaradorlik va shaxsiy tajribasini qo'llab tibbiy yordam ko'rsatishi zarur. Kasbiy qiyinchiliklarga duch kelganda tibbiyot xodimi hamkasblariga yordam so'rab murojaat qilishi va unga murojaat qilgan hamkasblariga yordam berishi lozim.

4.8. Fuqaroning o'z kasaliga doir ma'lumotlarni bilgan holda o'z ixtiyori bilan rozilik berishi tibbiy aralashuvning dastlabki zarur shartidir. Fuqaroning ahvoli o'z hohish-irodasini bildirishga imkon bermaydigan, tibbiy aralashuvni esa kechiktirib

bo'lmaydigan hollarda fuqaroning manfaatini ko'zlab tibbiy aralashuvni amalga oshirish masalasini konsilium hal qiladi, agar konsiliumga yig'ilishning iloji bo'lmasa, keyinchalik davolash-profilaktika muassasasining mansabdar shaxslarini xabardor qilish sharti bilan bevosita davolovchi (navbatchi) shifokor hal etadi.

## **V. OITSga qarshi kurashish markazi bo'lim boshliqlarining odob - ahloq qoidalari**

5.1. Bo'lim boshlig'i o'z kasbini chuqur bilishi (yuqori professionallik namunasi bo'lishi) va har qanday vaziyatda xodimlarga nisbatan to'g'ri yo'lni topishga harakat qilishi, boshqaruv lavozimi uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim, ko'nikma hamda malakaga ega bo'lishi, boshqarish, rejalashtirish, tahlil qilishni bilishi shart.

5.2. Bo'lim boshlig'i bo'lim xodimlari bilan samimiyligi va adolatli munosabatda bo'lishi hamda jamoaning ish samaradorligini oshirish, yuqori natijalarga erishishi uchun imkon qadar qulay sharoit yaratish olishi kerak.

5.3. Bo'lim boshlig'i vijdonan yondashib, insonning qadriga Yetishi, axloqiy qoidalarga amal qilgan holda bo'limni boshqarishi, shu bilan birga bilimli, halol, adolatli, sodda va kamtarin, o'ziga va boshqalarga e'tiborli bo'lishi kerak.

5.4. Bo'lim boshlig'i boshqaruv psixologiyasini bilishi – aniq maqsadga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan, ilmiy va ijodiy salohiyatga ega jamoani hamda ushbu jamoada ijobiy muhitni shakllantira olishi kerak.

5.5. Bo'lim boshlig'i xodimlardan o'z vakolatlaridan tashqari vazifalarni bajarishni talab qilmasligi kerak (ya'ni, o'ziga berilgan huquqdan foydalanib boshqa shaxslarga o'z vazifalarini hal etish holatlari kuzatilmasligi kerak) – har bir xodimning funksional majburiyatlaridan kelib chiqib, topshiriqlar berilishi kerak.

5.6. Bo'lim boshlig'i vazifalarni ahamiyat darajasiga qarab to'g'ri taqsimlashi va bajarilgan ish hajmiga ko'ra xodimlarning ishini to'g'ri baholay olishi kerak.

5.7. Bo'lim boshlig'i bo'limda sog'lom muhit yaratishi, moddiy va nomoddiy motivasiyaning samarali tizimlarini joriy qilishi, o'quv mashg'ulotlariga e'tibor berishi, tashabbusni rag'batlantirishi, martaba o'sishiga intilishi, xodimlarning ahvolini to'g'ri tushunishi va ma'naviy yordam bera olishi, kerak bo'lsa bo'ysunuvchilarni himoya qila olishi kerak.

5.8. Bo'lim boshlig'i xodimlarning ishiga hayrixoh bo'lishi va ular bilan bevosita ishini muhokama qilishi, xodimlarni tinglay olishi kerak.

5.9. Bo'lim boshlig'i xodimlarga xizmatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni qo'pollikka yo'l qo'yagan holda tushuntirishi kerak.

5.10. Bo'lim boshlig'i bo'limdagи vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilishi shart.

5.11. Xodimni ish vaqtiga tugagandan keyin ish joyida ushlanib qolishi mumkin bo'lgan vaziyatni oldini olishi kerak (ma'lum bir muddatga berilgan vazifalarni zudlik bilan bajarish yoki xodimning rejalashtirilgan tadbirlarda (uchrashuv, seminar va boshqalar) ishtiroy etishi bundan istisno).

5.12. Bo'lim boshlig'i bo'lim xodimlarini yangi me'yoriy hujjatlar, bo'limga tegishli boshqaruv ko'rsatmalari to'g'risida xabardor qilishi shart

5.13. Bo'lim boshlig'i o'z vazifalarini bajarish jarayonida jamoada alohida guruuhlar va boshqa salbiy omillar paydo bo'lismi oldini olishi, jamoaning barcha a'zolari birgalikda ishlashi uchun sharoit yaratishi kerak.

5.14. Bo'lim boshlig'i manfaatlar to'qnashuvining oldini olishi va ularni hal qilish uchun tezkor choralar ko'rishi zarur; shaxsning xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan shaxsiy manfaatdorlik bilan bemorlar, xodimlar o'rtasida davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilikni yuzaga keltirmaslik uchun tegishli chora tadbirlarni qo'llay bilishi kerak.

5.15. Bo'lim boshlig'i korruptsiyaning oldini olish choralarini ko'rishi, o'z mansab, xizmat mavqiedan shaxsiy manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanmaslikda xodimlarga o'rnak bo'lisi kerak.

5.16. Bo'lim boshlig'i mulkni asrab-avaylashi va ulardan maqsadli foydalanishi kerak.

5.17. Bo'lim boshlig'i xodimlarning o'zi ishlayotgan muassasa odob-ahloq qoidalari buzilishiga olib keladigan hatti-harakatlarining oldini olish choralarini ko'rishi kerak.

5.18. Tasdiqlangan funktional majburiyatlarini vijdonan, astoydil bajarishi kerak.

5.19. Bo'lim boshlig'i o'z xodimlarining kasbiy va ilmiy malakasini oshirishga xalaqit bermasligi (qarshilik qilmasligi) kerak.

5.20. Texnik jihozlardan xizmat vazifalardan tashqarida foydalanishga yo'l qo'ymasligi kerak.

5.21. Shaxsiy kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan holatlarda, bu vaziyatlarni ish jarayoni bilan aralashtirib yubormasligi kerak.

## **VI. OITSga qarshi kurashish markazlari shifokorlarining odob - ahloq qoidalari**

6.1. Shifokor professionallik (ya'ni qonuniy belgilangan biror narsani samarali usullarda bajarish), tajriba, bilim, ko'nikma va kasbga ega bo'lisi kerak;

6.2. Shifokor o'zining funktional vazifalarini bilishi va ularni o'z vaqtida bajarishi, o'z vazifasiga sodiq bo'lisi kerak;

6.3. Shifokor rahbariyat tomonidan berilgan ko'rsatmalarni o'z vaqtida bajarishi kerak;

6.4. Shifokor xizmat ko'rsatish sohasidagi huquqlarini bilishi kerak;

6.5. Shifokor mavjud standartlar, bayonnomalar, tartib va klinik tavsiyalarni bilishi va klinik holatlar hamda kasbiy tajribasiga ko'ra ularga rioya qilishi shart.

6.6. Shifokor o'zining kasbiy faoliyatiga tegishli barcha amaldagi qonunlarni va boshqa normativ-huquqiy hujjalarni bilishi va ularga rioya qilishi kerak.

6.7. Shifokor o'z xizmat vazifalarini vijdonan (ya'ni o'z majburiyatlarini halol, puxta, qunt bilan) bajarishi kerak.

6.8. Shifokor o'z hamkasblari bilan samimiyl va do'stona munosabatda bo'lisi, jamoaning samarali natijalarga erishishiga hissa qo'shishi, ziddiyatli holatlar yuzaga chiqarmasligi kerak.

6.9. Shifokorga ish vaqtin tugashidan oldin ish joyini sababsiz tark etish taqiqlanadi.

6.10. Shifokorlar va boshqa jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi har qanday kelishuv, shuningdek korruption munosabatlar taqiqlanadi.

6.11. Shifokor tashkilotning o'ziga ishonib topshirilgan mulkiga oqilona munosabatda bo'lisci va undan maqsadli foydalanishi kerak;

6.12. Shifokorga o'zi ishlayotgan muassasada odob-ahloq qoidalarini buzishga olib keladigan harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi;

6.13. Shaxsiy kelishmovchiliklar bo'lsa, ulardan xizmat paytida foydalanish mumkin emas;

6.14. Rahbariyatni ogohlantirmasdan ishdan qolish yoki ishdan ketish holatlari bo'lmasligi kerak;

6.15. Shifokor bemorlar va ularning qarindoshlari huzurida o'z hamkasblari va ularning faoliyati haqida salbiy fikrlar berishi mumkin emas;

6.16. Ish joyidagi va ishdan tashqaridagi odamlar bilan muloqot qilishda rahbariyatni, hamkasblarini muhokama qilishdan bosh tortishi kerak;

6.17. Shifokor uning bevosita rahbarlarini chetlab o'tmasligi kerak. Shifokor yuqori rahbariyat tomonidan berilgan ko'rsatmalar to'g'risida bevosita rahbarlarini xabardor qilishi shart;

6.18. Shifokor ishga o'z vaqtida kelishi, kechikmasligi, sababsiz ishdan ketmasligi va zaruriyat bo'lganda bevosita rahbarlarini ishga kelmaslik sababi haqida ogohlantirishi kerak;

6.19. Shifokor tanqidni to'g'ri qabul qilib, kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilishi kerak;

6.20. Shifokor subordinatsiyaga (yuqori tashkilotlar vakillari, markaz rahbariyati va uning bevosita rahbarlari oldida bo'y sunish) rioya qilishi kerak;

6.21. Shifokor ishga muassasa qoidalariga mos keladigan kiyimda kelishi kerak. Shifokor chiroyli ko'rinishga ega bo'lisci: toza tibbiy xalat yoki boshqa turdag'i tibbiy kiyim (tibbiy kostyum) da bo'lisci kerak;

6.22. Shifokorga xizmat lavozimdan foydalangan holda o'rta ya kichik tibbiyot xodimlariga qo'shimcha ish tayinlashga yo'l qo'yilmaydi;

6.23. Tibbiy maxfiylik shifokorga o'z kasbiy burchini bajarishda ma'lum bo'lgan hamma narsani anglatadi. Tibbiy sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni shu jumladan shaxs, vafot etganidan keyin bemorning yoki uning qonuniy vakilining ruxsatisiz oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi (qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno)

6.24. Shifokor bemor bilan o'zaro ishonch va o'zaro mas'uliyat asosida munosabatlarni o'rnatishi kerak. Bemorning sog'lig'i to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlar xushmuomalalik bilan beriladi; tibbiy harakatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar va noqulay natijalarni yashirmsandan, mavjud tekshirish va davolash usullarining afzalliklari va kamchiliklarini o'z ichiga olgan holda tushunarli shaklda tushuntirishi kerak. Shifokor bemorning sog'lig'i to'g'risida olingen ma'lumotlardan qoniqqanligiga ishonch hosil qilishi kerak.

6.25. Shifokor huquqi, kasbiy burch tamoyillarini har qanday holatda o'zgartirmasligi, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan axloqiy tamoyillar, kasbiy

burchga yoki qonunga zid harakat qilishni talab qiladigan har qanday bosim urinishlarini rad etishi kerak.

6.26.Har bir shifokor o'zining tibbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi hamda malaka, professionallik darajasini oshirishga yordam beradigan ta'lim tadbirlarida muntazam ishtirok etishi kerak.

6.27.Shifokor bemorning oilasi va shaxsiy hayotiga qonuniy asoslarsiz aralashmasligi kerak.

6.28.Shifokor yuqori sifatli, samarali va xavfsiz tibbiy yordam ko'rsatishga majbur. U turli davolash va diagnostika usullarining afzalliklari, kamchiliklari hamda oqibatlarini hisobga olishga majbur. Tashkilotda zarur shart-sharoitlar va resurslar mavjud bo'limganda, shifokor bemorni tegishli tibbiyot muassasasiga yuborishi shart.

6.29.Shifokor o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Shifokorlarning huquqlarini mehnat munosabatlari, ijtimoiy ta'minot, ma'muriy va jinoiy javobgarlik sohalarida himoya qilish tibbiy va professional notijorat tashkilotlari ko'magida amalga oshirish mumkin.

## **VII. OITSga qarshi kurashish markazlari o'rta tibbiyot xodimlarining odob-ahloq qoidalari:**

7.1. O'rta tibbiyot xodimlari o'z funksional majburiyatlarini bilishlari, o'z vaqtida bajarishlari va burchlariga sodiq bo'lishlari kerak.

7.2. O'rta tibbiyot xodimlari rahbariyat va bo'lim mudirining ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarishlari shart;

7.3. O'rta tibbiyot xodimlari markaz direktori tomonidan tasdiqlangan ish jadvaliga muvofiq ish joyiga o'z vaqtida kelishlari kerak;

7.4. O'rta tibbiyot xodimlari o'z faoliyatini huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarda ko'rsatilgan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirishlari kerak;

7.5. O'rta tibbiyot xodimlari yuqori tashkilotlar rahbariyati va vakillariga, bo'lim mudirlariga, shifokorlarga bo'y sunishi kerak;

7.6. O'rta tibbiyot xodimlari o'z vaqtida, kechikmasdan ishga kelishlari, sababsiz ishdan ketmasliklari va zaruriyat bo'lganda bo'lim mudiriga ishga kelmaslik sababi haqida xabar berishlari kerak;

7.7. O'rta tibbiyot xodimlari shifokorlarning har bir so'ziga e'tibor berishlari va tinglashlari, shifokor bemor bilan gaplashayotganda ularning suhbatiga aralashmasligi kerak;

7.8. O'rta tibbiyot xodimlari hamkasblari va bemorlar bilan muloqot qilishda hurmat va xayrihohlik ko'rsatishlari kerak (tinch, muloyim ovoz ohangida so'zlashish, so'zlashuvda haqoratli va qo'pol so'zlarni ishlatmaslik, so'z katta ahamiyatga egaligi, nutq madaniyatini, xushmuomalaligini shuningdek, bemorning kayfiyatini ko'tarish, unga beparvo so'zlar bilan zarar bermaslik qobiliyatini ham anglatishini unutmasligi kerak).

7.9. Xizmat vazifalarini vijdowan bajarishga shubha tug'diradigan xattiharakatlardan tiyilish, shuningdek, davlat tashkilotining obro'siga putur Yetkazadigan vaziyatlardan qochishi, bemorlarga nisbatan to'g'ri va e'tiborli bo'lishi, tanishbilishchilikka yo'l qo'ymasligi kerak;

7.10.O'rta tibbiyot xodimlari to'g'ridan-to'g'ri bo'limning katta hamshirasiga, shifokoriga va bo'lim boshlig'iga bo'ysunadi;

7.11.Ish vaqtida ish joyini sababsiz, bo'lim mudirining ruxsatisiz va katta hamshiranı xabardor qilmasdan tark etishi mumkin emas;

7.12.Xizmat vazifalarini bajarishda biron bir shaxs, guruh yoki tashkilotni yoqlamaslik, ularning ta'siridan mustaqil bo'lish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy huquqlarini himoya qilish, manfaatlarni hisobga olish va kamsitish holatlaridan qochish kerak;

7.13.Hamshiralari o'z vazifalarini boshqa hamkasblar, bemorlar va ularning qarindoshlariga yuklashga yo'l qo'ymasliklari kerak;

7.14.Bemorga tashxisini, test natijalarini aytmasligi, shifokor tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni bermasligi hamda shifokorning davolash jarayoniga aralashmasligi kerak;

7.15.O'rta tibbiyot xodimlari shifokorning bemor, ularning qarindoshlariga maslahat berayotganda yoki hamkasblari bilan suhbat paytida suhbatga aralashmasligi yoki suhbatni buzmasligi kerak;

7.16.O'rta tibbiyot xodimlari kasbiy vazifalarni bajarish tufayli unga ishonib topshirilgan yoki unga ma'lum bo'lган: bemorning sog'lig'i, tashxisi, davolanishi, uning kasalligi prognozi, shuningdek bemorning shaxsiy hayoti to'g'risida ma'lumotlarni, hatto bemor vafot etgan taqdirda ham uchinchi shaxslardan sir tutishlari kerak;

7.17.O'rta tibbiyot xodimlari o'z bilimlarini doimiy ravishda oshirishga, takomillashtirishga intilishlari kerak;

7.18.O'rta tibbiyot xodimlari rahm-shafqat, sabr-toqat, mas'uliyat, intiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lishi kerak;

7.19.O'rta tibbiyot xodimlari bemorlar yoki ularning qarindoshlari oldida tibbiyot xodimlari harakatlarini muhokama qilmasligi, munosabatlarni aniqlashtirmasligi kerak;

7.20.O'rta tibbiyot xodimlari ish yuklamalaridan qat'iy nazar xotirjam, vazminlik bilan harakat qilishlari kerak;

7.21.O'rta tibbiyot xodimlari kichik tibbiyot xodimlari bilan xushmuomala bo'lishi kerak;

7.22.O'rta tibbiyot xodimlari bemor va uning qarindoshlari, tashrif buyuruvchilarni tinchlantira olishi kerak;

7.23.O'rta tibbiyot xodimlari ish joyidagi jihozlarni asrab, ish joyini toza saqlashlari kerak;

7.24.O'rta tibbiyot xodimlari muassasada belgilangan qoidalar va me'yorlarga rioya qilishlari, tibbiy kiyimi (tibbiy kostyum, tibbiy xalat, qalpoq) toza, dazmollangan bo'lishi, yurganda shovqin chiqarmaydigan va oson tozalanadigan poyabzaldan foydalanishi kerak.

7.25.O'rta tibbiyot xodimlarining qo'llari toza, tirnoqlari kalta olingan bo'lishi kerak.

7.26.O'rta tibbiyot xodimlari ish joyida baland ovozda gapirmasligi va baland ovozda kulmasligi kerak.

## **VIII. OITSga qarshi kurashish markazlari kichik tibbiyot xodimlarining odob-ahloq qoidalari**

- 8.1. Kichik tibbiyot xodimlari markaz ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan ish jadvaliga muvofiq ish joyiga o'z vaqtida kelishlari kerak;
- 8.2. Kichik tibbiyot xodimlari o'z ishiga vijdonan va mas'uliyat bilan yondashishi, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va to'g'ri bajarishlari kerak;
- 8.3. Kichik tibbiyot xodimlari rahbariyat, yuqori tashkilotlarning vakillariga, bo'lim mudirlariga, shifokorlarga va hamshiralarga bo'y sunishi kerak;
- 8.4. Kichik tibbiyot xodimlari shifokorning hamkasblari, bemorlar va ularning qarindoshlari bilan suhbat (maslahati) paytida suhbatga aralashmasligi kerak;
- 8.5. Kichik tibbiyot xodimlari muassasa me'yor va qoidalariga muvofiq kiyinislari shart. Tibbiy kiyim (tibbiy forma, tibbiy xalat, qalpoq) toza va dazmollangan bo'lisi, yurganda shovqin chiqarmaydigan va oson tozalanadigan poyabzaldan foydalanishi, qo'llari toza, tirnoqlari kalta olingan bo'lisi kerak;
- 8.6. Kichik tibbiyot xodimlari xulq-atvor va muloqot madaniyatiga riosa qilishi, hamkasblari va bemorlar bilan muloqotda hurmat va xayrixohlik ko'rsatishi, e'tiborli, fuqarolar, hamkasblari bilan munosabatda sabrli bo'lisi kerak;
- 8.7. Kichik tibbiyot xodimi o'z vazifalarini vijdonan bajarishiga shubha tug'diradigan xatti-harakatlardan tiyilishi, shuningdek, uning obro'siga yoki davlat tashkilotining obro'siga putur Yetkazadigan vaziyatlardan qochishi kerak;
- 8.8. Kichik tibbiyot xodimlari to'g'ridan-to'g'ri bo'lim hamshirasi, bo'limning katta hamshirasi va shifokorlariga, bo'lim mudiriga bo'y sinadi;
- 8.9. Kichik tibbiyot xodimi ish joyida jihozlarni ehtiyyot qilib, ish joyini toza saqlashi kerak;
- 8.10. Kichik tibbiyot xodimlari ishga kechikmasdan, o'z vaqtida kelishlari, sababsiz ishdan ketmasliklari va zaruriyat bo'lganda bo'lim mudirini ishga kelmaslik sababi haqida ogohlantirishlari kerak;
- 8.11. Ish vaqtida ish joyini sababsiz, bo'lim boshlig'ining ruxsatisiz va bo'lim boshlig'ini xabardor qilmasdan tark etmaslik kerak;
- 8.12. Kichik tibbiyot xodimi maxfiylikka riosa qilishi (bemorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ovoza qilmasligi), bemorlarni kamsitishga yo'l qo'ymasligi kerak;
- 8.13. Kichik tibbiyot xodimlari ish joyida baland ovozda gapirmasliklari va baland ovozda kulmasligi kerak.

## **IX. Respublika OITSga qarshi kurashish markazi xo'jalik xodimlari, texniklar, haydovchilar, bog'bonlar, qo'riqchilarning kasbiy odob-axloq qoidalari:**

- 9.1. Markaz ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan ish jadvaliga binoan ish joyiga o'z vaqtida kelishi va funktsional majburiyatlarini bajarish kerak;
- 9.2. Xizmat vazifalarini o'z vaqtida va sifatli bajarishlari kerak;
- 9.3. Xodimlarning tashqi kiyimlari har doim toza, dazmollangan va ularning ishiga xalaqit bermaydigan, qulay bo'lisi kerak;
- 9.4. Poyabzal qulay hamda yurganda shovqin chiqarmaydigan bo'lisi kerak;
- 9.5. Muloqot jarayonida o'z hamkasblariga hurmat va xayrixohlik ko'rsatishlari, fuqarolar va hamkaslar bilan munosabatlarda xushmuomala, e'tiborli,

sabrli bo'lishlari, o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishlari, shubha tug'diradigan, shuningdek ularning yoki davlat tashkilotining obro'siga putur Yetkazadigan hatti-harakatlardan tiyilishlari, bunday vaziyatlardan qochish kerak;

9.6. O'ziga ajratilgan markazning texnik jihozlaridan, moddiy narsalardan o'z o'mida maqsadli foydalanishi va o'g'irlilik holatlarining oldini olishi, ehtiyyotkorlik bilan saqlashi kerak;

9.7. Ish joyida har qanday qo'pol, uyatli, haqoratli, odobsiz iboralarni ishlatishga yo'l qo'yilmasligi kerak.

9.8. Bemorlar, o'tkazilgan testlar, bemorning tashxisi haqida ma'lumot bermasliklari kerak;

9.9. Xodimlarning bemorlar va ularning qarindoshlari bilan suhbatiga aralashmasligi va buzmasligi kerak;

9.10. Ish joyida baland ovozda gapirmasliklari va baland ovozda kulmasligi kerak;

9.11. Ish paytida elektr va suv resurslaridan tejamkor foydalanishi, sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilishlari kerak.

## X. Yakuniy qoidalar

10.1. Markaz direktori va xodimlari tomonidan ushbu Qoidalarning buzilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin.

10.2. Tibbiyot xodimi tomonidan mazkur Odob-ahloq qoidalariga rioya etilishi attestasiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zahirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

10.3. Ushbu Odob-ahloq qoidalarining buzilishlari Odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish hay'ati markazning xodimlaridan kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish hay'atining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va uning faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

10.4. Odob-ahloq qoidalarining buzilishi holatlarini maxsus tarkibiy bo'linma yoki Odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish hay'ati tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqacha tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xulosa chiqariladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, maxsus tarkibiy bo'linma tibbiyot xodimiga nisbatan Odob-ahloq qoidalarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

10.5. Tibbiyot xodimlari o'zları yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek tashkilotning qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Respublika OITSga qarshi  
kurashish markazining  
2023 yil “5.09”  
14317-sonli buyrug'iga  
2-ilova

**Respublika OITSga qarshi kurashish markazi odob-ahloq qoidalariga  
rioya etilishini nazorat qilish hay'ati tarkibi**

Nº	FIO	Lavozimi	Komissiyaga a'zoligi
1.	D.Mustafayeva	Respublika OITSga qarshi kurashish markazi direktorning davolash ishlari bo'yicha o'rinnbosari v.b.	Komissiya rahbari
2.	Ye.Papina	Poliklinika bo'limi boshlig'i	A'zo
3.	T.-M.Yuldashev	Laboratoriya majmuasi boshlig'i	A'zo
4.	M.Musabekova	OIV/OITS bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish va vaziyatni taxlil qilish tashkiliy uslubiy bo'limi boshlig'i	A'zo
5.	D.Sobirova	Bosh hamshira	A'zo